XIX ASR IKKINCHI YARMI - XX ASR BOSHLARIDA TURKISTONDA O‘RNATILGAN AYRIM HARBIY TARTIBOTLAR

Faxriddin Ro‘ziboyev Sohibjon o‘g‘li
Namangan davlat universiteti tayanch doktoranti

Annotatsiya: Ushbu maqolada XIX asrning ikkinchi yarmidan Turkiston o‘lkasining boshqaruv tizimida Rossiya imperiyasi tomonidan amalga oshirilgan yangi islohotlar va mahalliy xalqni itoatda saqlab turishga qaratilgan ba’zi qoidalar haqida ma’lumotlar berilgan.

Kalit so‘zlar: qoida, nizom, jarima, qamoq, sudlov idoralari, Duma.

Annotation: This article provides information about the new reforms implemented by the Russian Empire in the administrative system of the Turkestan region from the second half of the 19th century and some rules aimed at keeping the local people obedient.

Keywords: rule, statute, fine, prison, judicial authorities, Duma.

Yer yuzidagi davlatlar tarixini o‘rganadigan bo‘lsak, ularning ko‘pchiligi mustamlaka davrini boshidan kechirgan. Mustamlakachi davlatlar esa qo‘l ostidagi mustamlaka xalqlarni imkon qadar o‘z tartib qoidalari, qonun va nizomlari orqali boshqargan. Shu jumladan Turkiston ham XIX asrning ikkinchi yarmida Rossiya imperiyasi hukmiga bo‘ysindirilgandan so‘ng, podsholikning tartib-qoidalari o‘rnatila boshlangan. Bu o‘zgarishlarni avvalo boshqaruv tizimida ko‘rish mumkin. 1867-yilda tashkil etilgan general-gubernatorlik mahalliy aholini itoatda saqlab turish va eksplutatsiya qilish funksiyalarini bajarar edi. Bu boshqaruv organining vakolat doirasi haddan ziyod kengligini uning rahbari general-gubernatorni xalq orasida “yarim podsho” deb nomlanganidan ham bilish mumkin. Mazkur gubernatorlik mahalliy xalq uchun yangicha tartib-qoidalarni ishlab chiqa boshlagan.

Ellik yillik boshqaruv davomida Turkiston talon-taroj qilindi, tovlamachilik va korrupsiya holatlari avj oldi. Bu davrda tovlamachilik o‘g‘irlik holatlari sodir etilganlik uchun jazo faqat mahalliy aholi uchun qaratilgan edi. Bu to‘g‘risida rus tarixchilari ham ma’lumot berishgan. Masalan tarixchi Z. Kastelskaya o‘z asarida shunday degan: “qirollik advokatlari hukmron tabaqaga mansub poraxo‘rlarga homiylik qilar, mahalliy aholiga mansub aholi vakillari esa arzimagan tiyin o‘girlasa qamoqqa tashlanar edi. Masalan 1890-yilda oddiy o‘zbek dexqoni Jo‘raboy Zaripov ko‘chadan topib olgan 92 tiyin uchun 10 varoqli ish ochilgan bunday “jinoyat” uchun

jarimaga tortiladi agar puli bo‘lmasa qamoqqa tashlanadi” shuningdek, bu asarda aytilishicha Podsho Rossiyasi qonunlariga ko‘ra, o‘zbek xalqi “maxsus tartibda boshqariladigan aholi” toifasiga kiritilgan, ya’ni arzimagan fuqarolik huquqlaridan mahrum qilingan[30].

Mahalliy aholi shunday xo‘rlanganki, hatto mahalliy ishchilarga rus aholisi yashaydigan ko‘chalardagi o‘rindiqlarga o‘tirishi, milliy kiyimlarda yurishi man etilgan. Shuningdek, mahalliy millat vakillari general-gubernatorning farmoyishi bilan yangi hukumatning barcha rahbar xodimlariga “ehtirom bilan ta’zim” qilishga majbur qilingan. Eng ajablanarli tomoni hukumat rahbarlari “bo‘ysindirilgan xalqlarga qaratilgan siyosatimiz fuqarolar tengligiga asoslanadi” deb jar solishgan aslida esa notenglik hukmron edi. Mahalliy aholining tengsizlikdan aziyat chekkanligi yana bir hujjat ya’ni “Turkiston o‘lkasini boshqarish” to‘g‘risidagi Nizomda o‘z ifodasini topgan edi. Chunonchi, ular oliy va o‘rta toifadagi lavozimlarga qo‘yilmagan. Hokimyat rus amaldorlari qo‘lida to‘plangan edi.

Turkiston o‘lkasini boshqaruv usullari va ularning huquqiy asoslari yaratilgan edi. Buni Toshkent misolida ko‘rishimiz mumkin. 1867-yili “harbiy-xalq” boshqarmasi tuzildi. Shahar yangi va eski qismlaridagi ijtimoiy-siyosiy va xo‘jalik boshqaruvi bir-biridan alohida-alohida olib borilgan. Toshkentning yangi qismida quyidagi ishlarni amalga oshirish ko‘zda tutilgan:

Reja tuzish, uy qurishga yer ajratish, ko‘cha va maydonlar barpo etish;

Soliqlar, turli tushumlarni tartibga keltirish va undirish, shuningdek shahar daromad va harajatlar smetasini tuzish;

Shahar irrigatsiya tizimi va obodonchiligini boshqarish.

Harbiy-xalq boshqaruvining barcha qarorlari general-gubernator tomonidan tasdiqlangan. Toshkent shahri uchun boshqaruv tizimiga oid yana bir muhim organlardan biri Toshkent dumasi edi. Duma 1877-yilda tashkil etilgan. Mazkur dumada mahalliy aholining saylovdagi ishtiroki asosiy masala hisoblanadi. Dumada ovoz beruvchilar umumiy soni 72 nafar bo‘lishi va shundan 1/3 qismi rus bo‘lmagan mahalliy aholi vakillaridan, 2/3 qismi esa shaharning yangi qismidan bo‘lishi kerakligi belgilab qo‘yilgan. Duma a’zolari mahalliy aholining hisobiga kun ko‘rgan. Shuningdek, shahar mahkamasi faoliyati ham muhim ahamiyat kasb etgan. Uning tarkibi: 80-yillarda boshliq va o‘rinbosar, olti otliq yigit, mirshab, vrach, 2 feldsher mirob va boshqalardan iborat bo‘lgan[31].

[30] Кастелская З. Из истории Туркестанского края (1866-1917). – М. 1980. – С .34.
[31] Кастелская З. Из истории Туркестанского края (1866-1917). – М. 1980. – С .56.

XIX asrning 80-yillariga kelib Turkistonda jamoat tartibi va osoyishtaligini saqlashda muhim o‘rin tutuvchi organlar faoliyati ham isloh qilindi. 1887-yilgacha Toshkent shahrining “yangi” qismida politsiyachilar vazifasini mirshab va uning yordamchisi boshqargan. Turkiston o‘lkasini boshqarish haqidagi nizomga ko‘ra 1887-yilda “yangi” shahar politsiya boshqarmasi shahar boshlig‘iga bo‘ysungan. Boshqa viloyatlarda esa boshqacharoq edi. Politsiyaga uyezdlarning boshliqlari rahbarlik qilar edi. Politsiya qo‘riqchilari maoshlari zemstvo solig‘i hisobidan qoplangan. Keyinroq bu harajatlarning ma’lum bir qismi shahar daromadidan qoplanadigan bo‘lgan. So‘ng politsiya maoshi butunlay shahar daromadi hisobiga o‘tib ketgan[32].

XIX asr oxiri XX asr boshlarida podsho Rossiyasi Turkiston o‘lkasida milliy-ozodlik harakatlari kuchayganligi sababli politsiya boshqaruvini mustahkamlashga imkon beruvchi bir nech chora tadbirlar ko‘rdi. Masalan: 1893-yilda maxfiy politsiya tashkil etilgan va 1907-yilda general-gubernator idorasi qoshida maxfiy politsiya tashkil etish bo‘yicha maxsus bo‘lim tuzildi. Turkistonda yangicha tartib-qoidalarni joriy etish, mustamlakachilik tuzimini qo‘riqlash, unga bo‘ladigan har qanday tajovuzni oldini olish maqsadida 1907-yilda Turkiston rayon muhofaza bo‘limi tashkil etilgan. U har qanday ommaviy chiqishni joyida bostirar va aybdorlarni ayovsiz jazolar edi. Boshqaruvning asosiy usullari sifatida zo‘rlik yolg‘on ishlatish, qo‘rqitish, korrupsiya tovlamachilik yaqqol namoyon bo‘lar edi. Ushbu bo‘lim va quyi bo‘limlarda poraxo‘rlik holatlari tez-tez ko‘zga tashlanib turgan masalan bu haqda P. Galuzo Туркестан-колония kitobida shunday degan: “poliysmesterlarga kelgan shikoyatlar pora berilishi tufayli noibning stoli ustidayoq yo‘q qilib yuborilar edi[33]”.

Mahalliy aholi shunday itoatda tutilganki, buni general-gubernatorlikka tayinlangan general Duxovskiyni Toshkentga tashrif buyurgan kuni uni kutib olish uchun turgan ommaning holatidan ham bilish mumkin. Bu vaziyatni S. Stratonov “Служба в Туркестане” kitobida shunday tasvirlaydi: “Toshkent vokzalidan shahargacha bo‘lgan butun yo‘l tahminan ikki vyorst oq rangli sallali kishilardan xuddi oq ranga bo‘yalganga o‘xshaydi. Barcha mahalliy aholi salla kiygan “aybdor” boshlarini yerga egishlari kerak edi… va kulrang mo‘ylovli yarim qirol o‘z aravasida

[32] Исмоилова Ж. XIX асрнинг иккинчи ярми – XX аср бошларида тошкентнинг «янги шаҳар» қисми тарихи. – Т.: “Fan va texnologiya” 2004. – B 39.
[33] Галузо П .Г. Туркестан-Колония. (Очерк истории Туркестана от завоевания русскими до революсии 1917 года) –М . 1929. – С 59.

ularga daxshatli xiralik bilan qaradi…”[34]. Bundan ko‘rinadiki mahalliy aholi ikkinchi darajali xalq sifatida ko‘rilgan.

Mazkur davrda faoliyat yuritgan harbiy gubernatorlar tub yerli aholi vakillarini arzimagan qilmishi uchun 100 so‘m jarima solishi yoki 1 oylik qamoqqa hukm qilishi mumkin edi. Bu davrda fuqarolar uchun yana bir necha qoidalar joriy qilingan edi. Masalan agarda shaxs general-gubernator tomonidan “siyosiy jihatdan zararli deb topilsa, besh yilgacha muddatga badarg‘a qilingan, shuningdek hokimyat vakillariga qarshilik ko‘rsatgan shaxslar harbiy sudga berilgan. U yoki bu xil jazoni belgilashda mustamlaka ma’muriyati amaldorlari juda ko‘p hollarda huquq doirasidan chetga chiqardilar. Jazoga tortish imkoniyati juda keng talqin qilinardi “gapga kirmaganligi uchun”, “qo‘pollik qilganligi uchun”, “hurmatsizlik qilgani uchun” “buyruqni bajarmagani uchun” kabilar. Bu qoidalarning ko‘pchiligini huquqiy asosi bo‘lmagan va bu holat XX asr boshlariga qadar davom etgan. XIX asrning 80-yillariga kelib jinoyat sodir etgan mahkumlarga oid bir nechta qoidalar ishlab chiqildi. Jumladan 1880-yilda “Surgun qilishga mo‘ljallanganlarni saqlash to‘g‘risidagi muvaqqat qoidalar”, mazkur qoidada mahkumlarni saqlash va jo‘natish qoidalari belgilangan. 1886-yilgi “guberniya, uyezd qamoqxonalari va jo‘natish turmalarida siyosiy maxbuslarni saqlash qoidalari” e’lon qilindi. Shuningdek 1886-yilgi maxsus qonunga binoan mahkumlar yozda 11 soat qishda 10 soatdan ishlashga majbur etilgan[35].

Shunday qilib, XIX asr 2- yarmi va XX asr boshlarigacha davom etgan chor Rossiyasining Turkistonda mustabid tuzimini o‘rnatish va yangicha qonun qoidalarni joriy etish jarayonlariga mahalliy aholi majburan jalb qilindi. Ularning milliy an’ana qadryatlari hisobga olinmadi. Ko‘p hollarda mahalliy aholiga past nazar bilan qaraldi va ularning jamiyatda emin-erkin faoliyat yuritishi har tomonlama cheklab qo‘yildi. Shuningdek, ruslar o‘zlarining qoida va nizomlarini tiqishtirib shu orqali Turkistonni boshqarishga harakat qilgan. Shundoq ham xonlarning zulmidan aziyat chekib kelgan mazlum xalq battar ezilgan. Provardida XIX asrning oxiriga kelib deyarli butun Turkiston bo‘ylab xalq qo‘zg‘alonlari sodir bo‘lgan.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Абдурахимова Н. Эргашев Ф. Туркистонда чор мустамлака тизими. Тошкент : Академия. 2002.

2. Кастелская З. Из истории Туркестанского края (1866-1917). – М. 1980.

[34] Стратонов В. Служба в Туркестане. – Т . 1904. – С. 23.
[35] Абдурахимова Н. Эргашев Ф. Туркистонда чор мустамлака тизими. – Т .: Академия. 2002. – б 84-85.

3. Исмоилова Ж. XIX асрнинг иккинчи ярми – XX аср бошларида тошкентнинг «янги шаҳар» қисми тарихи. Тошкент: “Fan va texnologiya” 2004.

4. Галузо П .Г. Туркестан-Колония. (Очерк истории Туркестана от завоевания русскими до революсии 1917 года) –М . 1929.

5. Стратонов В. Служба в Туркестане. – Ташкент : 1904.